

**RAQAMLI DISKURS VA MEDIAMATNLARNING O‘ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI****Umida Mahmudova Ural qizi***Toshkent davlat jahon tillari universiteti**Ingliz tili tarjima nazariyasi kafedrasida dotsenti**email: umidamahmudova1010@gmail.com*

Annotatsiya: *Raqamli texnologiyalar diskursi zamonaviy elektron vositalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog‘liq lingvistik va semiotik amaliyotlar majmuasi hisoblanib, oddiy diskursdan nafaqat kommunikatsiya vositalari, balki o‘ziga xos nutqiy aktlar, leksik-grammatik vositalar va pragmatik maqsadlar bilan ham farqlanadi. Bu diskurs turi kompyuter tizimlari, tarmoq texnologiyalari, dasturiy ta‘minot, elektron qurilmalar, sun‘iy intellekt va boshqa axborot-kommunikatsiya vositalarini o‘z ichiga oluvchi keng qamrovli soha bo‘lib, uning “vositachilik tabiati”ni anglash muhimdir, chunki har qanday raqamli muloqot va ma‘lumot almashish jarayoni texnologiyalar orqali amalga oshiriladi.*

Kalit so‘zlar: *Raqamli texnologiyalar diskursi, texnologik omillar, ijtimoiy omillar, madaniy omillar, lingvistik omillar, personalizatsiya, raqamli vositachilik, mediamatnlar.*

Raqamli texnologiyalar diskursining shakllanishi murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, unga ta‘sir etuvchi omillarni to‘rt asosiy guruhga bo‘lish mumkin. Masalan, oddiy ovozli xabar yuborilganda, bizning nutqimiz dastlab raqamli signalga aylanib, ma‘lum protokollar orqali uzatilib, keyin qayta tiklanadi, shuning uchun ham tadqiqotchi R.Logan “vosita o‘zi xabardir” degan mashhur fikrni bildirgan edi¹⁸³. Birinchidan, texnologik omillar yangi raqamli qurilmalar, platformalar va dasturiy ta‘minotning paydo bo‘lishi orqali tildan foydalanilishiga va muloqot shakllariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir qiladi, chunki smartfonlar va ijtimoiy tarmoqlarning ommabop bo‘lishi qisqa xabarlar almashinuvini rivojlantirib, qisqartmalar, emoji va belgilarning qo‘llanilishi kabi yangi lingvistik hodisalarning shakllanishiga olib keldi. Ikkinchidan, ijtimoiy omillar jamiyatning texnologiyalarga bo‘lgan munosabati, ularni qabul qilish darajasi va texnologik savodxonlik kabi jihatlar bilan bog‘liq bo‘lib, ayrim jamiyatlarda innovatsion raqamli texnologiyalar tezroq qabul qilinsa, boshqalarida an‘anaviy muloqot shakllari uzoqroq saqlanib qolishi mumkin. Uchinchidan, madaniy omillar turli madaniyatlarning raqamli texnologiyalarni o‘ziga xos

¹⁸³ Logan R.K. Understanding New Media: Extending Marshall McLuhan. – New York: Peter Lang Publishing, 2010. – P. 154.

tarzda o‘zlashtirishi va ulardan foydalanishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu madaniy kontekst muayyan tildagi raqamli texnologiyalar diskursining lingvistik xususiyatlariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. To‘rtinchidan, lingvistik omillar har bir tilning o‘ziga xos tuzilishi, leksik boyligi, grammatik xususiyatlari va boshqa ichki omillari bilan bog‘liq bo‘lib, bu omillar raqamli texnologiyalar diskursida o‘ziga xos jihatlarni shakllantiradi, shuning uchun ham turli tillarda terminologiyaning rivojlanishi, so‘z yasaliishi, chet tilidan so‘zlarning o‘zlashtirilishi turlicha kechadi. Raqamli kommunikatsiyaning eng muhim jihatlaridan biri – barcha muloqot jarayonlarining muayyan “vositachi” orqali, ya‘ni raqamli qurilmalar, dasturiy ta‘minot, tarmoq protokollari, interfeyslar orqali amalga oshirilishi bo‘lib, bu vositachilik nafaqat texnologik, balki semiotik ahamiyatga ham ega, negaki zamonaviy raqamli muloqotda biz nafaqat ma‘lumot uzatamiz, balki o‘zimiz ham ushbu raqamli vositalar tomonidan “qayta formatlashtirilgan” ma‘lumotni qabul qilamiz. Amerikalik media tadqiqotchisi L.Manovich ta‘biri bilan aytganda, “yangi media biz haqimizdagi ma‘lumotlarni qayta formatlaydi va biz haqimizdagi tasavvurlarni o‘zgartiradi”¹⁸⁴, biroq bu vositachilik jarayoni ko‘pincha foydalanuvchilar nazaridan chetda qoladi, chunki tarmoq infrastrukturasi, algoritmlar, kodlar – bularning barchasi ko‘zga ko‘rinmaydigan “qora quti” ichidagi jarayonlardir, ammo aynan ushbu ko‘rinmas omillar raqamli diskursning asosini tashkil etadi.

Aynan shu raqamli vositachilik va uning murakkab semiotik tabiatini tushunish uchun zamonaviy media tushunchalarini chuqurroq anglash zarur bo‘lib, bu o‘rinda mediamatn konsepti alohida ahamiyat kasb etadi. Mediamatn tushunchasi raqamli texnologiyalar diskursining muhim elementi hisoblanib, ilk bor an’anaviy ommaviy axborot vositalari (gazeta, jurnal, televideniye, radio) kontekstida qo‘llanilgan bu termin, bugungi kunda raqamli diskursdagi mediamatnlarning keng doirasini qamrab oladi, shuning uchun ham zamonaviy tushunchada mediamatn – bu nafaqat verbal vositalar, balki vizual, audio va boshqa semiotik elementlarni ham o‘z ichiga olgan, raqamli platformalarda tarqatiladigan va foydalanuvchilar tomonidan interaktiv tarzda qabul qilinadigan murakkab belgili tuzilmadir.

Raqamli texnologiyalar diskursini mediamatnsiz tavsiflash mumkin emas, chunki aynan mediamatn zamonaviy raqamli muhitda ma‘nolarning shakllanishi, uzatilishi va idrok etilishining asosiy vositasi hisoblanadi. Odatiy mediamatn emas, aynan mediamatn tushunchasining qo‘llanilishi uning multimediamiy xususiyati, ko‘p kodliligi, gipermediamatnliligi va interaktivligini ta‘kidlaydi. An’anaviy mediamatndan farqli o‘laroq, mediamatn turli semiotik kodlar va kanallarning integratsiyasini nazarda tutib,

¹⁸⁴ Manovich L. The Language of New Media. – Cambridge, MA: MIT Press, 2001. – P. 64.

foydalanuvchining faol ishtirokini talab qiladi, shuningdek, raqamli texnologiyalarning vositachilik funksiyasini ham aks ettiradi.

Mediamatn evolyutsiyasini kuzatar ekanmiz, quyidagi bosqichlarni ajratib ko‘rsatish mumkin: birinchisi – an’anaviy bosqich, bu bosqichda mediamatn gazeta va jurnallarda chop etilgan maqolalar, televideniya va radio orqali uzatilgan material sifatida tushunilgan; ikkinchisi - elektron bosqich, kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi va internetning paydo bo‘lishi bilan mediamatn elektron formatga ko‘cha boshlagan, biroq uning strukturasi va mazmuni hali ham an’anaviy media formatlariga yaqin bo‘lgan; uchinchisi – raqamli integratsiya bosqichi, ushbu bosqichda mediamatn to‘liq gipermediaga aylanib, ya’ni mediamatn, tasvir, audio, video, interaktiv elementlar va boshqa semiotik manbalarning integratsiyalashgan tizimiga aylangan; va to‘rtinchisi – konvergent bosqich, zamonaviy bosqichda mediamatn turli platformalar va qurilmalar (kompyuter, planshet, smartfon) orasida erkin harakatlanish, bir formatdan boshqasiga transformatsiyalanish, shuningdek, sun’iy intellekt tizimlarining ishtirokida yaratilish va qayta ishlanish imkoniyatiga ega. Raqamli mediamatn eng avvalo gipermediaviy struktura bilan ajralib turadi, ya’ni bu struktura mediamatnning turli qismlari va boshqa manbalar bilan giperhavolalar orqali bog‘lanishini ta’minlaydi. Gipermediaviylik o‘quvchiga mediamatn bilan ishlashda katta erkinlik berib, u o‘z qiziqishlari va ehtiyojlariga ko‘ra ma’lumotlarni turli yo‘nalishlar bo‘yicha izlashi va qayta ishlashi mumkin bo‘ladi. Bunday strukturaga ega bo‘lgan mediamatn an’anaviy mediamatnlarga qaraganda o‘qishga ko‘proq resurslar talab qiladi, chunki u bir vaqtning o‘zida ham axborot olish, ham navigatsiya qilish, ham qaror qabul qilish (qaysi havolaga o‘tish va qaysilarini e’tiborsiz qoldirish) kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Raqamli muhitdagi mediamatn turli semiotik moduslarning murakkab tizimi sifatida mavjud bo‘lib, bu tizimda verbal, vizual, audio va boshqa moduslar o‘zaro ta’sir va aloqada bo‘ladi, natijada bunday intermodal semiotik tizim ma’nolarning ancha murakkab tarzda shakllanishiga olib keladi, chunki verbal va noverbal elementlar bir-birini to‘ldiradi, kuchaytiradi. Masalan, ijtimoiy tarmoqdagi post faqat mediamatndan emas, balki rasmlar, videolar, giperhavolalar, emoji, heshteglar kabi elementlardan ham tashkil topishi mumkin bo‘lishiga qaramay, bu elementlarning o‘zaro aloqasi va kombinatsiyasi yaxlit ma’noni shakllantiradi.

Raqamli mediamatn ko‘pincha polifonik xarakterga ega bo‘lib, unda turli ovozlari, qarashlar va nuqtayi nazarlar ifodalanishi mumkin, ayniqsa bu xususiyat ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va forumlar kabi kollaborativ platformalarda yaqqol namoyon bo‘ladi, chunki bu yerda asosiy mediamatn (post) bilan birga izohlar, sharxlar, baholashlar ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi va yaxlit diskursni tashkil etadi. Polifoniyalik mediamatnning

dinamik rivojlanishini ta'minlab, u doimiy ravishda yangilanib, to'ldirilib borganligi sababli, masalan, yangiliklar saytidagi maqola vaqt o'tishi bilan yangi ma'lumotlar, izohlar, fotosur'atlar va boshqa elementlar bilan boyib boradi.

Raqamli texnologiyalar diskursida mediamatn ko'pincha personalizatsiya imkoniyatlariga ega bo'lib, bu algoritmlar va sun'iy intellekt yordamida har bir foydalanuvchi uchun individual tarzda tanlangan va taqdim etilgan kontent ko'rinishida namoyon bo'ladi. Personalizatsiya natijasida har bir foydalanuvchi o'ziga xos "axborot pufagi" ichida qolib, u asosan o'z qiziqishlari va qarashlari bilan mos keladigan kontentni ko'radi, bu esa, o'z navbatida, mediamatn qabul qilinishining subyektivlashuviga olib keladi, shuning uchun bu hodisa raqamli texnologiyalar diskursini o'rganishda muhim ahamiyatga ega, chunki u kontentning idrok etilishi va talqin qilinishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Raqamli texnologiyalar diskursida mediamatnlarni quyidagi asosiy mezonlarga ko'ra tasniflash mumkin. Yaratilish manbasiga ko'ra: professional mediamatnlar (rasmiy OAV, nashriyotlar, marketing agentliklarining mutaxassisleri tomonidan yaratilgan mediamatnlar), foydalanuvchi generatsiya qilgan mediamatnlar (oddiy internet foydalanuvchilari tomonidan yaratilgan va tarqatilgan mediamatnlar, jumladan bloglar, ijtimoiy tarmoqlardagi postlar, shaxsiy kanallar), va mashina generatsiya qilgan mediamatnlar (sun'iy intellekt tizimlari, algoritmlar va maxsus dasturlar yordamida yaratilgan mediamatnlar). Semiotik tuzilishiga ko'ra: monomedial mediamatnlar (asosan bir semiotik modusga, masalan, faqat mediamatnga asoslangan materiallar), multimedial mediamatnlar (turli semiotik moduslarni, ya'ni mediamatn, rasmlar, video, audio o'z ichiga olgan materiallar), va transmedial mediamatnlar (turli platformalar va medialar orqali rivojlanadigan yaxlit narrativ).

Funksional yo'nalishiga ko'ra: axborot beruvchi mediamatnlar (asosiy maqsadi ma'lumot uzatish bo'lgan mediamatnlar, jumladan yangiliklar, hisobotlar, tahliliy materiallar), ko'ngilochar mediamatnlar (asosiy maqsadi auditoriyani ko'ngil ochishi bo'lgan mediamatnlar, masalan video roliklar, memlar, o'yinlar), ta'lim beruvchi mediamatnlar (o'qitish va tarbiyalash maqsadidagi mediamatnlar, masalan onlayn kurslar, videodarslar, ilmiy-ommabop materiallar), va reklama mediamatnlar (asosiy maqsadi tovar yoki xizmatlarni targ'ib qilish bo'lgan mediamatnlar). Interaktivlik darajasiga ko'ra: statik mediamatnlar (minimal interaktivlik imkoniyatlariga ega bo'lgan, asosan bir tomonlama kommunikatsiyaga mo'ljallangan mediamatnlar), interaktiv mediamatnlar (foydalanuvchilar bilan o'zaro ta'sir qilish imkoniyatiga ega bo'lgan mediamatnlar, masalan forumlar, chatlar, kommentariyalar), va immersiv mediamatnlar (foydalanuvchini to'liq jalb qiluvchi, unga virtual muhitlarda harakatlanish imkoniyatini beruvchi mediamatnlar, masalan virtual reallik, argumentlashtirilgan reallik).

Raqamli texnologiyalar diskursida mediamatnlarni o‘rganish uchun turli tadqiqot usullari qo‘llanilib, bu usullar mediamatnning til xususiyatlarini, uslubiy jihatlarini, lingvistik strukturasini hamda semiotik va madaniy jihatlarini tahlil qilish imkonini beradi, natijada tadqiqotchi raqamli diskursning turli qirralarini kompleks ravishda o‘rganishi mumkin bo‘ladi.

Lingvistik diskurs-tahlil mediamatnda qo‘llanilgan til vositalarini, grammatik konstruksiyalarni, leksik prinsiplarini va boshqa lingvistik xususiyatlarni o‘rganib, bu usul yordamida raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlar, stereotiplar va ustanovkalarining tilda qanday ifodalanishi o‘rganiladi. Zamonaviy diskurs-tahlilda Van Deyk, Norman Ferklo, Rut Vodak kabi olimlarning nazariy yondashuvlari qo‘llanilib, ushbu tadqiqotchilar diskursni nafaqat lingvistik fenomen, balki ijtimoiy amaliyot sifatida ham ko‘rib chiqishadi, chunki til va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlar diskurs orqali namoyon bo‘ladi¹⁸⁵.

Kontent-tahlil usuli mediamatnlar mazmunini tizimli ravishda o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, bu usul yordamida tadqiqotchi mediamatnda ma‘lum mavzular, g‘oyalar, qadriyatlarning qanchalik ko‘p yoki kam uchrashini aniqlashi mumkin, shuning uchun ham kontent-tahlil ham sifat, ham miqdor jihatlarini o‘z ichiga olishi mumkin. Raqamli texnologiyalar diskursida kontent-tahlil, masalan, innovatsion texnologiyalarning qanday tasvirlanishi, ularning afzalliklari va kamchiliklarining qanday ifodalanishini o‘rganish uchun qo‘llanilib, bu orqali jamiyatda raqamli texnologiyalarga bo‘lgan munosabatni aniqlash mumkin.

Multimodal diskurs-tahlil turli semiotik moduslarning (verbal, vizual, audio va boshqalar) o‘zaro ta‘sirini va ularning yagona ma‘no sifatida qanday faoliyat ko‘rsatishini o‘rganib, bu usul raqamli mediamatnlarning murakkab semiotik tuzilishini tushunishga yordam beradi. Multimodal diskurs-tahlil doirasida tadqiqotchi quyidagi savollarni o‘rganishi mumkin: verbal va vizual elementlar qanday o‘zaro aloqada, turli moduslar bir-birini to‘ldiradimi yoki aksinchami, qaysi modus dominantlik qiladi va buning sababi nima, chunki bu savollar raqamli kontentning kompleks xarakterini ochib berishga yordam beradi.

Lingvomadaniy tadqiqot usullari til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, bu usullar raqamli texnologiyalar diskursida milliy-madaniy xususiyatlarni, qadriyatlarni, stereotiplarni va madaniy modellarni aniqlashga yordam

¹⁸⁵ Van Dijk T.A. Critical Discourse Analysis. In The Handbook of Discourse Analysis, edited by D. Schiffrin, D. Tannen, and H. E. Hamilton. – Oxford: Blackwell, 2001. – P. 352-371.; Fairclough, N. Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language [2nd ed.]. – London: Longman, 2010. – P. 44.; Wodak R. The discourse-historical approach. – London: SAGE. In Methods of Critical Discourse Analysis, edited by R. Wodak and M. Meyer, 2001. – P. 63-94. London: SAGE.

beradi, negaki til nafaqat muloqot vositasi, balki madaniy kodlar va qadriyatlarni saqlovchi va uzatuvchi tizim sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Konseptual tahlil til orqali ifodalangan asosiy tushuncha va g‘oyalarni o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, bu usul yordamida tadqiqotchi raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy konseptlarni (masalan, “raqamli dunyo”, “innovatsiya”, “sun‘iy intellekt”) va ularning turli lingvomadaniy kontekstlarda qanday ifodalanishini o‘rganishi mumkin. Konseptual tahlil raqamli texnologiyalar diskursidagi asosiy qadriyatlar va e‘tiqodlarni tushunishga yordam berib, bu usul orqali texnologiyalar haqidagi tasavvurlar va ularning madaniy determinatsiyasini aniqroq tushunish imkoniyati mavjud, chunki turli madaniyatlarda bir xil texnologik tushunchalar turlicha konseptualizatsiya qilinishi mumkin.

Lingvomadaniy lakuna va ekvivalentsizlik tahlili, bu usul turli tillarda raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq bo‘lgan terminlar va tushunchalarning qanday ifodalanishini, shuningdek, ekvivalentsiz leksikani (bir tilda mavjud bo‘lib, boshqa tilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalenti bo‘lmagan so‘z va iboralar) o‘rganishga qaratilgan. Masalan, ingliz tilida “digital native” iborasi mavjud bo‘lib, u raqamli texnologiyalar muhitida tug‘ilib-o‘sgan avlodni ifodalaydi. Boshqa tillarga bu tushunchani tarjima qilishda ma‘lum qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bunday lakunalarni o‘rganish orqali tadqiqotchi turli madaniyatlarda raqamli texnologiyalar qanday idrok etilishi va konseptualizatsiya qilinishini aniqroq tushunishi mumkin.

Lingvomadaniy stereotip va metafora tahlili, bu usul raqamli texnologiyalar diskursida qo‘llaniladigan metafora, o‘xshatish va boshqa obrazli vositalarni, shuningdek, ular orqali ifodalangan stereotiplarni o‘rganishga qaratilgan. Metaforalar ma‘lum madaniyat vakillari tomonidan dunyoni idrok etish va konseptualizatsiya qilish yo‘llarini aks ettiradi. Masalan, ingliz tilida kompyuter muammolari ko‘pincha kasallik metaforasi orqali ifodalanadi (virus, infection, quarantine), boshqa tillarda esa boshqa metaforik konseptlar ustunlik qilishi mumkin. Bu farqlarni o‘rganish orqali tadqiqotchi madaniy-kognitiv xususiyatlarni aniqlashi mumkin.

Masalan, “blogger”, “youtuber”, “influenser” kabi ijtimoiy rollar bilan bog‘liq terminlarning paydo bo‘lishi va tarqalishi zamonaviy raqamli jamiyatda yangi ijtimoiy guruhlar va identliklar shakllanayotganini ko‘rsatadi. Bu terminlarning turli tillarda qanday o‘zlashtirilishi va moslashishi esa madaniy identlik transformatsiyasi jarayonlarini aks ettiradi.

Har bir madaniyat raqamli texnologiyalarni o‘ziga xos tarzda qabul qiladi va moslaydi. Masalan, ayrim madaniyatlarda raqamli texnologiyalar asosan taraqqiyot va farovonlik manbai sifatida tasvirlanadi, boshqalarida esa ularning salbiy oqibatlariga ko‘proq urg‘u

beriladi. Bu tasvirlar tildagi leksik tanlov, metaforalar va boshqa lingvistik vositalar orqali namoyon bo‘ladi.

Raqamli texnologiyalar natijasida til tizimi ham o‘zgarmoqda – yangi so‘zlar, grammatik konstruksiyalar, nutq janrlari paydo bo‘lmoqda. Lingvomadaniy tahlil bu o‘zgarishlarni kuzatish va tilning zamonaviy rivojlanish tendentsiyalarini aniqlash imkonini beradi. Masalan, internetda muloqot uchun xos bo‘lgan “klaviatura nutqi” (kompyuter klaviaturasida yordamida amalga oshiriladigan yozma nutq) o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, og‘zaki va yozma nutq o‘rtasidagi chegaralarni yorib o‘tadi. Bu yangi nutq shakllining paydo bo‘lishi tilning evolyutsionlashish jarayonlarini aks ettiradi.

Shunday qilib, lingvomadaniy tahlil nafaqat hozirgi holatni o‘rganish, balki kelajak tendentsiyalarini ham prognozlash imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar diskursida kuzatiladigan o‘zgarishlar til va madaniyatning kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlarini ko‘rsatib berishi mumkin. Masalan, sun‘iy intellekt tizimlari tomonidan yaratilgan mediamatnlarning lingvistik xususiyatlarini o‘rganish orqali tadqiqotchi kelajakda inson-mashina kommunikatsiyasi qanday rivojlanishini va bu jarayon til tizimiga qanday ta‘sir ko‘rsatishini prognoz qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Logan R.K. Understanding New Media: Extending Marshall McLuhan. – New York: Peter Lang Publishing, 2010. – P. 154.
2. Manovich L. The Language of New Media. – Cambridge, MA: MIT Press, 2001. – P. 64.
3. Van Dijk T.A. Critical Discourse Analysis. In The Handbook of Discourse Analysis, edited by D. Schiffrin, D. Tannen, and H. E. Hamilton. – Oxford: Blackwell, 2001. – P. 352-371.
4. Fairclough, N. Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language [2nd ed.]. – London: Longman, 2010. – P. 44.
5. Wodak R. The discourse-historical approach. – London: SAGE. In Methods of Critical Discourse Analysis, edited by R. Wodak and M. Meyer, 2001. – P. 63-94. London: SAGE.